

**“IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-
INNOVATSION TADQIQOTLAR”**

ilmiy-metodik jurnali

Bosh muharrir:

Boltaeva Mohichehra

Tahrir hay'ati:

07.00.00 - Tarix fanlari

- Ergasheva Yulduz — Tarix fanlari doktori, professor
- Zununova Gulchehra — Tarix fanlari doktori, professor
- Kurbonova Zemfira — Tarix fanlari doktori, professor
- Askar Jumashayev — Tarix fanlari doktori, professor
- Nurjanov Sabit Uzakbayevich — Tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Xaydarov G'ayratbek Mirzapulatovich — Tarix fanlari doktori, dotsent
- Seydametova Gulnara Utarbayeva — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Nasirov Bunyod — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Sulaymanov Salamat Arepbayevich — tarix fanlari doktori, dotsent
- Tangirbergenova Kalligul — tarix fanlari nomzodi, dotsent
- Akimniyazova Gulnaz Abdinayimovna, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00 - Falsafa fanlari

- Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Saitkasimov Akbar Isaxanovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Musaev Odil Raxmatovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Suvanov Ilxom Abduxalilovich — Falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Alima Berdimuratova — Falsafa fanlari doktori, professor
- Kabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna — Falsafa fanlari doktori, professor
- Siddikov Ilyos — Falsafa fanlari doktori, dotsent

10.00.00 - Filologiya fanlari

- Zakirova Soxiba — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Ganiyeva Shodiya Azizovna — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Soatova Nodira — Filologiya fanlari doktori, professor
- Kobilova Zeboxon Bakirovna — Filologiya fanlari doktori, professor
- Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich -
Filologiya fanlari doktori DSc, dotsent

13.00.00 - Pedagogika fanlari

- Jo'rayev Risbay Xaydarovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turgunoy Egamberdiyeva — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Ibragimov Xolboy Ibragimovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turakulov Olim Xolbutayevich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Abdullayeva Barno Sayfutdinovna — Pedagogika fanlari doktori, professor

- Ismoilov Temur Islamovich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Umid Negmatovich Xo'jamqulov — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Isakulova Nilufar — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Jumanəzova Muxayyo Tojiyevna — Pedagogika fanlari doktori, dotsent

19.00.00 - Psixologiya fanlari

- Abdullayeva Dilbar — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Atabayeva Nargis Batirovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent,
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
- Umarov Baxriddin Mengboyevich — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Shamshetova Anjima Karamaddinovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent
- Norbekova Barno — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
- Abdumajidova Dildora — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

23.00.00 - Siyosiy fanlar

- Jo'raqulov Furqat Norjigitovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Axmedov Husniddin Alikulovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Musaev Mansur Tursunpulatovich — Siyosiy fanlar doktori, katta ilmiy xodim Ravshanov
- Fazluddin Ravshanovich — Siyosiy fanlar doktori, dotsent

22.00.00 - Sotsiologiya fanlari

- Xolbekov Abdug'ani Jumanazarovich — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Sodiqova Shoxida Marxaboyevna — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Gabdrahmanova Gulnara Faatevna — Sh. Marjani nomidagi Tarix instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Kamalova Xatira Sabirovna — Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar" - bu ilmiy-metodik jurnal bo'lib, O'zbekistonda 2024-yildan beri nashr etilmoqda. Jurnal har chorakda bir marta, yiliga 4 marta chop etiladi. Ushbu jarayonga talabga ko'ra muassislar va tahrir hayati bilan birgalikda kelishgan xolda o'zgartirish kiritish mumkin.

MUNDARIJA

07.00.00 – Tarix fanlari.....	6
SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING GENEZISI VA SOHADAGI MUAMMOLARNI AHOLI TURMUSHIDA AKS ETISHI (MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH VA UMUMIY OVQATLANISH MUASSASALARI MISOLIDA).....	6
Nasirov Bunyod Uralovich.....	6
09.00.00 - Falsafa.....	13
“NANOTEXNOLOGIYA” TUSHUNCHASINING FALSAFIY TAHLILI	13
Ashirmatov Hayot Xaitovich.....	13
FALSAFIY ANTROPOLOGIYA MUSTAQIL BILIM SOHASI SIFATIDA.	19
G.T. Kabulniyazova.....	19
10.00.00 – Filologiya.....	24
FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TIBBIYOT TERMINLARINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI.....	24
Abrayeva Shahnoza Esonovna	24
OLIY O‘QUV YURTLARIDA RUS TILINI O‘QITISHDA KOMPLEKS YONDASHUV	28
Mirrahimova Gulbahor Shuhratovna,.....	28
FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XARAKTER IFODALOVCHI OTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR.....	31
Primova Munisa Majlimovna	31
ISTIQLOL DAVRI ROMANLARI GENEZISI	35
Yaqubov Islomjon Ahmedjonovich.....	35
HAMZA - JADID SHE‘RIYATINING ISTE‘DODLI KUYCHISI.....	42
Sevinchoy Yoqubova.....	42
FUZULIYNING TURKIY DEBOCHASIDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR TALQINI	48
Karimova Faridaxon Isakovna.....	48
FUZULIYNING UVAYSIYGA ADABIY TA‘SIRI	54
Nusratullo Jumaxo‘ja.....	54
OYBEK SHE‘RIYATIDA VAZNNING FUNKSIYASI.....	59
Sabirdinov Akbar Gofurovich	59
SHE‘RIYATDA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK	69
Soatova Nodira Isomitdinovna	69
13.00.00 - Pedagogika.....	76

“SOVG‘A” ALIFBO KITOBİ	76
Abduvali Abdumutalibovich Yo‘ldashev	76
Adabiyotlar ro‘yxati:	79
РАССМОТРЕНЫ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНОСТИ “ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ” К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	80
Мухаммадиев Комил Бурхонович	80
OLIY TA’LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI RIVOJLANISHINING NAZARIY YoDASHUVLARI	93
Saloxitdinov Sherzod Farxodovich	93
19.00.00 – Psixologiya	99
МОДЕЛИРОВАНИЕ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЭКСПЕРИМЕНТЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ	99
Хатамов Сирожиддин Мелихузи угли.....	99
Усманов Салахдин Аликулович.....	99
Аракулов Гайрат Тулкинович	99
23.00.00 – Siyosiy fanlar.....	105
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI	105
Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li.....	105

23.00.00 – Siyosiy fanlar

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY
JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI**

Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda bugungi globallash sharoitida yuz berayotgan geomafkuraviy jarayonlarning geosiyosat hamda geoiqtisodiyotga ta'sirini tahlil etilgan. Shuningdek, geomafkuraning asosini tashkil etuvchi milliy mafkuraning shaklanishi davlatning geomafkuraviy siyosatini belgilab beruvchi bosh maqsadi ekanligi, uning amalga oshirishda milliy mafkura geomafkuraviy siyosatni harakatga keltiruvchi funksiyasi ekanligi ilmiy dalillar asosida asoslangan. Iqtisodiyotning qay darajada ekanligiga qarab mamlakatning geomafkuraviy siyosati vazifasini aniqlab berishi, ilmiy faktlar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: geomafkura, milliy mafkura, geoiqtisod, geosiyosat, neo-iqtisod, siyosiy vaziyat, Jon Lyuis Geddis, Edvard Luttvak va Paskal Lorot, N.E.Muhammadiyev, Tomas Kunn.

**ФИЛОСОФСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ
ГЕОФОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

Аннотация: В данной статье анализируется влияние геоидеологических процессов на геополитику и геоэкономику в условиях современной глобализации. Также на научных данных обосновано, что формирование национальной идеологии, составляющей основу геоидеологии, является основной целью государства, определяющей геоидеологическую политику, а национальная идеология является функцией продвижения геоидеологической политики в ее направлении. На основе научных фактов анализируется, что функция геоидеологической политики страны определяется в зависимости от уровня экономики.

Ключевые слова: геоидеология, национальная идеология, геоэкономика, геополитика, неоэкономика, политическая ситуация, Джон Льюис Геддис, Эдвард Люттвак и Паскаль Лоро, Н.Э. Мухаммадиев, Томас Кун.

**PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE STUDY OF
GEOPHOLOGICAL PROCESSES UNDER GLOBALIZATION**

Abstract: This article analyzes the impact of geo-ideological processes on geopolitics and geo-economics in the context of today's globalization. It is also based on scientific evidence that the formation of the national ideology, which forms the basis of geoideology, is the main goal of the state that determines the geoideological policy, and that the national ideology is the function of moving the geoideological policy in its implementation. It is analyzed on the basis of scientific facts that the function of the country's geo-ideological policy is defined depending on the level of the economy.

Key words: geo-ideology, national ideology, geo-economy, geo-politics, neo-economy, political situation, John Lewis Geddis, Edward Luttwak and Pascal Lorot, N. E. Muhammadiyev, Thomas Kunn.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Ma'lumki, XXI asrning birinchi choragida dunyoda globallashuv oqimining ulkan sur'ati, yangi dunyo tartibini shakllantirishga urinish kabi muhim jarayonlar sodir bo'lmoqda.

Bu jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, globallashuvda yangi dunyo tartibining paydo bo'lishi omillaridan biri bo'lib, u jamiyatning butun doirasiga ta'sir ko'rsatib, geoiqtisodiy, geosiyosiy, geostrategik va geomafkuraviy tadbirlarni amalga oshiradi. Davlatlar tomonidan, bu esa o'z navbatida hodisalarning o'zgaruvchanligiga ega. XXI asrda yangi global jadvalning shakllanishi, birinchi navbatda, ijtimoiy shaklni ta'minlashga qaratilgan barcha sa'y-harakatlar geosiyosiy jihatdan mafkuraviy asos sifatida qo'llab-quvvatlanadigan geosiyosiy vositalar orqali amalga oshiriladigan davlatlar o'rtasidagi geoiqtisodiy faollikdan boshlanadi.

Bugungi jadal rivojlangan davrda davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning taranglashgani hech birimizga yod emas. Dunyoning geosiyosiy manzarasida ro'y berayotgan voqea va hodisalarning tub negizida geomafkuralarning o'rni va ro'li bevosita tasir o'tkazmoqda. Bunga misol qilib aytishimiz mumkinki Yaqin Sharqdagi voqealarni keltirishimiz mumkin. Shunday ekan geomafkuraviy jarayonlar buzg'unchi kuchlarning nafaqat yurtimizni balki butun bashariyatga ham rahna solayotgan havflardan eng yirigi desak hech mubolag'a qilmaymiz.

Ushbu sohaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bergan e'tiborlarini quyidagi jumllarini keltirsak: "Bugungi kunda yon atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyovandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi"[3].

Yuqoridagi keltirilgan fikirlar o'laroq bu mavzuning ne chog'lik dolzarbligini ko'rsatib bermoqda. Global muammo darajasiga ko'tarilganligiga yana bir isbot sifatida: yer yuzida inson paydo bo'lganidan buyon urushlarda halok bo'lgan insonlarning soni, so'ngi bir asrda halok bo'lgan insonlar soni bilan solishtiradigan bo'lsa ozdir. Bularning barchasi turli davlatlar tepasiga kelib qolgan radikal kuchlar va vayronkor mafkuralar oqibatidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS)

Globallashuv jarayonida ro'y berayotgan geomafkuraviy jarayonlar xususida, xorijiy olimlardan, Samuel Hadington o'zining "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartibi" asarida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Geosiyosiy vaziyat sovuq urushidan so'ng juda chigal vaziyatni vujudga keltirdi. Jumladan, sovuq urushida Sobiq Sovet davlatining parchalanishi oqibatida dunyo gegemonligiga talabgor davlatlar sonining ko'payishiga, shuningdek, AQSh ning dunyo hukumronligiga intilishi sabab bo'ldi"[1], ya'ni Xitoy, Eron, Rossiya, Turkiya singari davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasida o'zining ta'sir doirasini kuchaytirishga intilishlar kuchaydi. Shuningdek, Jon Lyuis Geddis maqolasida geomafkuraviy jarayonlarni davlatning o'z kelajani belgilashdagi mafkuraviy siyosatini xaritaga qiyoslaydi. Tomas Kun o'zining "Ilmiy inqilobning tuzilishi" asarida mgemafkuraviy vaziyatni eski paradigm bilan uning muqobili o'rtasidagi almashinuvga qiyoslaydi.

Edvard Luttvak va Paskal Lorot tomonidan geoiqtidod va geosiyosatning geomafkuraga ta'siri xususida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ularning qimmatli ma'lumotlari "Geoiqtisod nima?"[5] nomli asarda batafsil yoritilgan. Yurtimizda geoiqtisod va geosiyosatning umumnazariy va falsafiy jihatlarini N.E.Muhammadiyev tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan o'zining "Geo-economics and geo-ideology-ideas and economical bases of the origin of a new world order in the conditions of globalization" nomli ilmiy maqolasida "Geoiqtisodni geosiyosatning asosini, uning birlamchi manbaidir"[4], deya tariflaydi. J.Ya. Yaxshilikov esa, "Geomafkurani asosini milliy mafkura sifatida ta'lqin etadi"[7], ya'ni milliy mafkuraning shakllanishi mintaqada yuritilishi kerak bo'lgan geomafkuraviy faoliyatning maqsadini, unga erishish yo'lida qilinishi kerak bo'lgan vazifalarga qaratilgan funksiyalarni belgilab beradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Hozirgi globallashuv sharoitida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tubdan o'zgardi. Bu o'zgarishlar natijasida jahon hamjamiyatiga taalluqli va insoniyatning kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi bir qancha dolzarb masalalar yuzaga keldi. Bu muammolar insoniyatning global muammolari deb ataladi va ularni hal qilish uchun barcha mamlakatlarning sa'y-harakatlari va sa'y-harakatlarini jamlash maqsadga muvofiqdir. Global muammolardan tinchlik va qurolsizlanish muammosi eng universal hisoblanadi, chunki u hal etilmasa, yerdagi hayot va sivilizatsiyaning kelajagi og'ir ahvolda qoladi. Insoniyat tarixida 14 000 dan ortiq urushlar qayd etilgan bo'lib, afsuski, sayyoramizning turli hududlarida hali ham harbiy to'qnashuvlar, keskinliklar mavjud. Ammo global miqyosda bu muammo XX-asrga kelib, 70 milliondan ortiq odamning hayotiga zomin bo'lgan ikki jahon urushi tomonidan yanada og'irlashdi. Ayni paytda AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston jahon hamjamiyatining rasman tan olingan yadro kuchlari hisoblanadi. Urush va harbiy to'qnashuvlar dunyoning turli burchaklarida sodir bo'lmoqda. Ayrim davlatlar harbiy harakatlar va fuqarolar urushlari tufayli gumanitar falokat holatida. Masalan, Suriya, Iroq, Liviya, Somali, Afg'oniston, Janubiy Sudan va boshqa davlatlar.

Samuel Hatingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tarkibi" asarida takidlanishcha: "Sivilizatsiyalarning vujudga kelishda asosiy omilni madaniyat bajaradi"[1], deb hisoblaydi. Bunga qarshi Tomas Kunn o'zining mumtoz ilmiy inqiloblarga bag'shlangan "Ilmiy inqiloblar tuzulmasi" asarida bunga qarshi hamda uni inkor etmagan holda quyidagi fikrlarni bildiradi: "Intelektual va ilmiy taraqqiyot yangi yoki endigin kashf etilgan faktlarni tushuntira olmay qolgan bir paradigmaning o'sha faktlarni nisbatan qoniqarliroq tarzda tushuntira oladigan ikkinchi paradigma bilan almashishi sodir bo'ladi"[6], ya'ni dunyo hamjamiyati siyosiy va mafkuraviy tuzilmalari hamda iqtisodiy rivojlanish oqibatida inkorni-inkor qonunidan foydalangan holda birinchi sivilizatsiyani ikkinchisi surib chiqarishini takidlaydi.

Jon Lyuis Geddis buni quyidagicha tushuntiradi: "Notanish hudud bo'ylab o'z yo'lini topish uchun kishiga qandaydir bir xarita talab qilinadi. Xaritashunoslik singari, bizning qayerda turganimiz, qay tomonga qarab ketayotganimizni aniqlash imkonini beruvchi zaruriy omil bu soddalashtirishdir"[2], ya'ni davlatning iqtisodi, ichki va tashqi siyosatini belgilab beruvchi asosiy yakdil mafkurasini soddalashtirish orqali, uning buguni va kelajagini belgilash mumkin deb hisoblashimiz mumkin.

Yuqorida takidlangan qudratga erishishning tub negizida geoiqtisod hamda unga erishish yo'lidagi usul va vositalarni ishlab beruvchi geomafkura turadi. Quyida biz bugungi dunyoning yangi tartibini vujudga keltiruvchi omillarni keltirib o'tamiz.

Geoiqtisodiyot paradigmasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yunonchadan olingan bo'lib, "Geoiqtisod "geo"-yer "economy" –iqtisod so'zlaridan olingan bo'lib, u iqtisodiyot va resurslarning fazoviy, vaqtinchalik va siyosiy jihatlarini o'rganadigan fan"[5], hisoblanadi.

Garchi umumiy qabul qilingan yagona ta'rif bo'lmasa-da, geoiqtisodiyotning geosiyosatdan alohida farqlanishini amerikalik strateg va harbiy maslahatchi Edvard Luttvak va frantsuz iqtisodchisi va siyosatshunosi Paskal Lorotga tomonidan ushbu alohidaliklar tadqiq etilgan.

Geoiqtisodiyot - yangi dunyo tartibining paydo bo'lishining iqtisodiy asosi sanaladi. Yigirma birinchi asrda jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi sabablarga ko'ra tobora munozarali bo'lib bormoqda: birinchidan, har qanday mamlakat iqtisodiyotidagi, har qanday ijobiy yoki salbiy o'zgarishlar butun dunyo bo'ylab tarqalgan mavjud aloqa va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishiga tez suratlarda ta'sir qiladi. ikkinchidan, global transmilliy korporatsiyalar kundan-kunga o'sib boradi va "davlat chegaralarini to'ldiradi"; uchinchidan, xalqaro savdo tezlashmoqda; to'rtinchidan, moliyaviy globallashuv va geosiyosiy jarayonlarning o'sishi; beshinchidan, raqobatlashayotgan jarayonlarning o'tkir yoki ko'zdan yashirin o'tkirligi; oltinchidan, jahon bozorida proteksionistik siyosatning keng qo'llanilishi;

yettinchidan, jahon iqtisodiyotida hukmronlik qilishga intilish maqsadida mafkuraviy kurashda o'z maqsadlariga erishish uchun qurolli kuch ishlatish. Shunday qilib, falsafiy nuqtai nazardan, jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonining keskin rivojlanishi o'ziga xos xususiyati ikkita xususiyat bilan xarakterli hisoblanadi:

1. Ijobiy hodisa sifatida: etnik guruhlar, millatlar, elatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishida; zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalarining tez suratlarda tarqalishida; investitsiya, kapital, tovar va mehmata immigratsiyasining aylanmasining erkin zonasiga aylanishida; yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlik shartlarining paydo bo'lishi jarayonida; iqtisodiy inqirozning oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlik qilish imkoniyati va boshqalar.

2. Salbiy hodisa sifatida: turli vositalar yordamida millat, elat va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuliga olib keladigan yashirin harakatlarni amalga oshiruvchi va shu bilan birga o'z maqsadlariga erishishga harakat qiluvchi iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlangan ayrim subyektlarning ulkan foyda olishida, bu o'rinda gigant korporatsiyalarning iqtisodiy mo'rt davlatlar xomashyo va bozorlarini egallash; rivojlanayotgan mamlakatlarni raqobat maydoniga chiqarishda, bu orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotini izdan chiqarish; ushbu qudratli kuchlar tomonidan tezkor iqtisodiy yordamni joriy qilish motivi ostida "iqtisodiy birlikka" qo'shish; zamonaviy, axborot texnologiyalari orqali inson ongi va ruhiga buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilishda.

Zamonamizning og'ir va ziddiyatli sharoitlarida qisqa muddatda Markaziy Osiyoning mustaqil huquqiy-demokratik davlatlarini shakllantirish va xalqaro hamjamiyatga qo'shilish uchun quyidagilar zarur: 1) ko'p asrlar davomida shakllangan jahon iqtisodiyotida o'z mavqeini egallashga urinish; 2) iqtisodiy jarayonni integratsiyalashuvida, zamonaviy noan'anaviy texnologiyalardan foydalanish muammosini hal etishda sherikchilikni to'g'ri tanlash hamda bu o'rinda manhatlarni hmoya qilishda; 3) jahon bozorida yangi mulkdorlar sinfining bevosita ishtirokini ta'minlash ya'ni investitsiya kiritishda jahon mulkdorlarining jalb etilishi; 4) dunyoda ro'y berayotgan geoiqtisodiy tamoyillarni bir zumda mantiqiy anglash va undan ilmiy-amaliy yechim yo'lilarini topish hamda amaliyotda to'g'ri foydalanish orqali erishish mumkin.

N.Muhammedovning fikriga ko'ra: "Geoiqtisodiyot, eng avvalo, geosiyosatda yangi geosiyosiy oqim sifatida maydonga chiqdi; ikkinchidan, o'ziga xos obyekt va subyektga ega bo'lgan jahon iqtisodiy jarayonlarining mahsuli sifatida; uchinchidan, bu hodisani ijtimoiy-iqtisodiy voqelik sifatidagi falsafiy pozitsiyadan zaruriy o'rganish"[4], kerakligini takidlaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, XXI asrga kelib, "uchinchi qo'l"ning ko'zga ko'rinmas harakatlari tufayli geoiqtisodiy urush tobora kuchayib bormoqda. Bularning barchasi quyidagi holatlarni keltirib chiqarmoqda:

Birinchidan, milliy mustaqillikka erishgan AQSH, Angliya, Fransiya, Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlar o'rtasida olib borilayotgan sun'iy geoiqtisodiy urushlarning avj olishiga;

Ikkinchidan, tabiiy gaz va neftga boy davlatlar importi uchun olib borilayotgan sun'iy geoiqtisodiy urushlarni vujudga keltirish;

Uchunchidan, kuchli iqtisodiyotga ega davlatlarning kuchsiz davlatlarga qarshi turli iqtisodiy sanksiyalardan foydalanish orqali ichki ishlariga aralashish;

To'rtinchidan, natijada yuz minglab begunoh insonlar geoiqtisodiy urushning qurboni bo'lishiga olib kelmoqda.

Uning oldini olishda quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, neo-iqtisodiyotning rivojlanishiga asoslangan etno-iqtisodiy tizim yaratish orqaligina bunday tashvishning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish;

Ikkinchidan, oldini olishga qaratilgan mexanizmni demokratlashtirish va bu orqali yangi dunyo tartibini o'rnatishda uchunchi dunyo mamlakatlarining ham manfaatlarini inobatga olish orqali erishish mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES)**

1. Hantington Samuel Fillips. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartibi. Tarjimon: J.Qodirov. –T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2023. –B.18.
2. Jhon Lewis Gaddis. Toward the post-cold war world. Foreign affairs. (spring 1991), –P.70. Ideas and foreign policy: Beliefs, Institutions and political change Ithaca: (Cornell University Press, 1993), pp.8-17.
3. Mirziyoyev Sh.M.Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. –T.: O'zbekiston. 2017. – 320 b.
4. Mukhamadiev, N. E. (2019). Geo-economics and geo-ideology-ideas and economical bases of the origin of a new world order in the conditions of globalization. Theoretical & Applied Science, (8), 60-63.
5. Petsinger, Marianne (July 23, 2020). "What is Geoeconomics?". Chatham House. Archived from the original on July 23, 2020. Retrieved July 23, 2020.
6. Thomas S.Khun. Tshe structure of scientific revolutions, (Chicago: niversity of Chicago press), pp.17-18.
7. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.